



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024  
2/1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**  
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир  
ўринбосари:**  
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**  
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**  
и.ф.д. Ф.А.Сафаров  
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**  
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**  
PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**  
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида  
тарқатилади.

**Тахририят манзили:**  
140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Muhabbatxon Zayniddin qizi Berdaliyeva</b> Zamonaviy sharoitda uy-joy qurilishini moliyalashtirish asoslari	151
<b>To‘yli Gulmurodovich Ravshanov</b> Misr mamlakatida turizm sohasini moliyalashtirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari	156
<b>Наргиза Музафаровна Бабаева</b> Суғурта компанияларининг инвестицион фаолиятини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари	162
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Оилавий корхоналар фаолиятига таъсир қилувчи омилар таҳлилини такомиллаштириш	167
<b>Дилмурод Холмўминович Жўраев</b> Акциядорлик жамиятларида ҳисоб сиёсатини тузишнинг ўзига хос хусусиятлари	174
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobining mohiyati va uni tashkil etishda budjetlashtirishning ahamiyati	178
<b>To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev</b> Qurilish korxonalarida ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar tahlili.	182
<b>Юлдуз Шарафитдиновна Рахманова</b> Инвестициявий кўчмас мулкларнинг тасарруф этилиши натижалари ҳисобини такомиллаштириш	185
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Nasiba Raxmatullayevna Ergasheva</b> Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish	190
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Саидахроп Гулямов, Мамаюнус Пардаев</b> Ҳикмат ахтарганга ҳикматдир дунё	196
<b>ИБРАТЛИ БИТИКЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Қуръон рақамларда	198

To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoiev – SamISI katta o‘qituvchisi

## QURILISH KORXONALARIDA KO‘RSATILGAN XIZMATLARDAN OLINGAN DAROMADLAR TAHLILI

**Annotatsiya:** ushbu maqola qurilish korxonalarini tomonidan ko‘rsatiladigan qurilish ishlari tasnifi, hisob hamda tahlilni amalga oshirishni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda qurilish korxonalarining iqtisodiy tahlilning obyektini sifatidagi alohida xususiyatlari to‘g‘risida.

**Kalit so‘zlar:** qurilish korxonalarini, tahlil, qurilish sohasi, iqtisodiy tahlilning obyektini, qurilish korxonalarida iqtisodiy tahlilning maqsadi, moliyaviy hisob xalqaro standarti, aksiyadorlik, shirkat, xususiy, qo‘shma va boshqa pudrat qurilishmontaj tashkilotlari.

**Kirish.** Mamlakatimizda barcha sohalar singari qurilish sohasini ham jahon bozorida raqobatbardosh, xalqaro standartlarga mos tarmoqqa aylantirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda.

Ushbu islohotlarning samarasi o‘laroq qurilish sohasi bo‘yicha ko‘plab loyihalar amalga oshirilib, mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda, mamlakat YAIMning oshishiga hamda aholining turmush darajasining yaxshilanishiga erishilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 29-yanvar kuni uy-joy va kommunal xo‘jaligi, qurilish, transport va ekologiya sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig‘ilishida aholiga munosib sharoitlar yaratish, hayot sifatini ta‘minlash maqsadida bu sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilganligi, o‘tgan yili hududlarda mingdan ortiq infratuzilma inshooti, 2 mingga yaqin ko‘p qavatli uy-joy barpo etilganligi, avtomobil yo‘llari, suv va issiqlik tarmoqlari qurilganligi hamda transport xizmati uchun yangi avtobus va samolyotlar olib kelinganligi ta‘kidlab o‘tildi.

Shu bilan birga, qurilish sohasiga zamonaviy standartlarni joriy qilish va sifatini ta‘minlash borasida kamchiliklar ko‘pligi, ichimlik suvi tannarxi va tarmoqlardagi yo‘qotishlar kamaymaganligi aytib o‘tildi hamda qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Davlatning qaysi tarmog‘i bo‘lishidan qatyi nazar uning rivojlanishi, ravnaq topishi ushbu tarmoqda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining ko‘payishi hamda rivojlanishiga, korxonalarining daromadlilik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik darajalarining yaxshilanishiga bog‘liqdir.


Korxonalarining ushbu ko‘rsatkichlarini baholashni ushbu korxonalarda amalga oshiriladigan iqtisodiy tahlil jarayonisiz amalga oshirish mumkin emas.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyot manbalari tahlili, qurilish sohasida fundamental tadqiqotlar qatorida I.S.Stepanova [1], Arens E.A. [2], DJ.K. Lobbek [3], Serov V.M. [4], Gurkov I.B [5] singari xorijiy olimlarning, M.K.Pardayev[6], N.T.Tuxliyev [7], E.V.Golesheva [8], M. Miraxmedov [9], A.A.Eshtayev [10], K.B.Urazov [11], singari mahalliy iqtisodchi olimlarning qurilish sohasidagi turli masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy-tadqiqot ishida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tahlil, sintez, obstrakt-mantiqiy tahlil, shuningdek, tanlovli kuzatuv, sotsiologik so‘rov, SWOT-tahlil, qiyoslov usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Korxonalar tomonidan amalga oshirilgan operatsion faoliyatning dastlabki moliyaviy natijasi bu daromaddir. Daromad hamda xarajat o‘rtasidagi tafovutning kattarib borishi korxonaning foydasini oshishiga hamda rentabellikning o‘shishiga olib keladi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to‘g‘risidagi 54-son nizomga ko‘ra korxonalar faoliyati birlamchi moliyaviy natijasi sifatida daromadlar quyidagicha guruhlangan.



**1- Vazirlar Mahkamasining 54-son nizomi bo'yicha daromadlar.**

Ushbu daromad turlaridan hamda 54-son nizomda belgilangan xarajatlar bo'yicha qurilish korxonasi daromadlilik darajalari quyidagicha aniqlanadi.

1. Qurilish korxonalaridan bajarilgan qurilish xizmatlari daromadlilik.

$$QXD = \frac{\text{Sof tushum}}{\text{Ko'rsatilgan qurilish xizmatlari tannarxi}}$$

2. Qurilish korxonalarining asosiy faoliyati daromadlilik.

$$AFD = QXD + \frac{\text{Asosiy faoliyat boshqa daromadlari}}{\text{Davri xarajatlari}}$$

3. Qurilish korxonalarining umumxo'jalik faoliyati daromadlilik.

$$UXFD = AFD + \frac{\text{Moliyaviy faoliyat daromadlari}}{\text{Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari}}$$

4. Qurilish korxonalarining soliq to'langunga qadar daromadlilik.

$$STQD = UXFD + \frac{\text{Favqulodda foyda}}{\text{Favqulodda zarar}}$$

5. Korxonaning umumiy daromadlilik ko'rsatkichi.

$$UD = \frac{\text{Jami daromad}}{\text{Jami xarajat}}$$

11-son buxgalteriya hisobi xalqaro standarti bo'yicha qurilish korxonalaridan tomonidan ko'rsatilgan qurilish xizmatlaridan olinadigan daromadlarni ikki turga bo'lgan.

1. Shartnomada kelishilgan dastlabki summa.
2. Shartnomada ko'zda tutilgan ishlar o'zgarishidan olinadigan daromadlar, da'volar hamda rag'batlantirish summalari.

Da’volar bo’yicha daromadlar - bu shartnoma narxiga kiritilmagan xarajatlarning buyurtmachi yoki boshqa shaxs tomonidan qoplanishi sifatida pudratchi tomonidan olinishi kutilayotgan summa. Da’vo quyidagilar natijasida yuzaga kelishi mumkin: masalan, buyurtmachining aybi bilan yo’l qo’yilgan kechiktirishlar, qurilish obyektiga qo’yiladigan texnik talablardagi yoki uning loyihasidagi yo’l qo’yilgan xatolar, va shartnoma bo’yicha ishlarga tortishuvga sabab bo’ladigan o’zgartirishlarni kiritish. Da’volar natijasida yuzaga keluvchi daromad summasi yuqori darajadagi noaniqlik bilan baholanishi mumkin, va ko’pincha muzokaralar natijasiga bog’liq.

Rag’batlantirish to’lovlari shartnomada belgilangan ishlarni bajarishning me’yoriy ko’rsatkichlariga erishilganda yoki oshirib bajarilganda pudratchiga to’lanadigan qo’shimcha summalaridir. Masalan, pudratchiga shartnomani muddatidan oldin bajargani uchun rag’balantirish to’lovi amalga oshirilishi shartnomada ko’zda tutilishi mumkin<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi hamda auditorlik faoliyatini yurutishni xalqaro talablarga moslashtirilayotgan bir paytda iqtisodiy tahlil jarayonini faqatgina milliy standartlar asosida amalga oshirish bu iqtisodiy tahlil natijalari faqatgina milliy darajada tan olinishi demakdir. Vaholanki mamlakatimiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo’yicha xalqaro investitsiya oqimlarini olib kirishga hamda xalqaro bozorga chiqishga bosqichma bosqich o’tib bormoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xalqaro bozorga chiqishda albatta xalqaro bozor talablariga javob berish kerak. Shu boisdan qurilish korxonalarida daromadlar tahlili amalga oshirilganda dastlab xalqaro standart talablari asosida amalga oshirilgan buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanilishi lozim.

Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan qurilish xizmatlari bo’yicha daromadlarga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

**Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan qurilish xizmatlari bo’yicha daromadlarga beriladigan buxgalteriya yozuvlari**

№	Operatsiya mazmuni	Dt	Kt
1	Shartnomada kelishilgan dastlabki summa bo’yicha bajarilgan qurilish xizmatiga	Buyurtmachilar oldidagi debitorlik qarzi	Ko’rsatilgan xizmatdan olingan daromad
2	Kutilayotgan rag’batlantirish hamda da’volar bo’yicha summalariga	Shartli aktiv (kutilayotgan debitorlik qarzi)	Muddati kechiktirilgan daromad

Ushbu buxgalteriya yozuvlari asosida shakllangan qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlaridan olingan daromadlar tahlilida qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlari daromadliligi ikkiga bo’lib o’rganilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

1. Shartnomada keltirilgan dastlabki summa bo’yicha qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlari daromadliligi.

$$DSBD = \frac{\text{Dastlabki summa bo'yicha bajarilgan qurilish xizmatlaridan olingan daromad}}{\text{Ko'rsatilgan qurilish xizmatlari tannarxi}}$$

2. Qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlari umumiy daromadliligi.

KXD

$$= \frac{\text{Dastlabki summa bo'yicha bajarilgan qurilish xizmatlaridan olingan daromad} + \text{Kutilayotgan rag'batlantirish hamda da'volar bo'yicha summalar}}{\text{Ko'rsatilgan qurilish xizmatlari tannarxi}}$$

<sup>1</sup> 11-son BHXS

Ushbu ko‘rsatkichlarning aniqlanishi qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlarining dastlab vujudga kelishi aniq bo‘lgan daromadlilik darajasini ifodalasa, ikkinchi tahliliy ko‘rsatkichda esa kutilayotgan qo‘shimcha daromadlilik darajasini ifodalab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 24-fevral, PQ-4611-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-4586 sonli qarori-06.02.2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-6119 sonli farmoni – 28.11.2020.
4. Экономика строительства: Учебник / под общей ред. И.С.Степанова.- 3-е изд., доп. и перераб. - М.: Юрайт-Издат, 2004..
5. Аренс Э.А., Дж.К. Лоббек. Аудит. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2001.
6. Гусева М.И., Коготкова И.З. Маркетинг в строительстве. Учебное пособие.(Серия «Высшая школа»). – М.: Книжный мир, 2011.

<b>Т.Яхёев</b>	<b>Т.Ҳаһуев</b>
<b>Механизмы оценки финансового состояния строительных предприятий</b>	<b>Mechanisms for rating the financial status of construction enterprises</b>
<b>Аннотация:</b> в статье речь идет о классификации строительных предприятий, особенностях процессов их деятельности и особенностях строительных предприятий как объекта экономического анализа.	<b>Abstract:</b> this article is about the classification of construction enterprises, special features of its activity processes and special features of construction enterprises as an object of economic analysis.
<b>Ключевые слова:</b> строительные предприятия, анализ, строительная отрасль, объект экономического анализа, цель экономического анализа в строительных предприятиях, государственные, акционерные, частные, совместные и другие подрядные строительные-монтажные организации.	<b>Keywords:</b> construction enterprises, analysis, construction industry, object of economic analysis, purpose of economic analysis in construction enterprises, state, joint-stock, private, joint and other contract construction and assembly organizations.

**Юлдуз Шарафитдиновна Рахманова** – Тошкент кимё халқаро университетети мустақил изланувчиси

**ИНВЕСТИЦИЯВИЙ КЎЧМАС МУЛКЛАРНИНГ ТАСАРРУФ ЭТИЛИШИ НАТИЖАЛАРИ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

<p><b>Аннотация:</b> ушбу мақолада инвестициявий кўчмас мулкларни (ИКМ) тасарруф этилиши, жумладан сотилиши, тугатилиши ҳамда фойда ва зарарлар ҳисоби масалалари ёритилган. Бундан ташқари ИКМнинг эски конструктив қисмлари янги конструктив қисмларга алмаштириш жараёнларини халқаро стандартларга мувофиқ ҳисобга олиш тартиби тадқиқ қилинган. Бухгалтерия счётлари ва бухгалтерия ёзувлари таклиф этилган.</p> <p><b>Калит сўзлар:</b> инвестициявий кўчмас мулк, инвестициявий кўчмас мулкларни сотишдан фойда, адолатли (ҳаққоний) қиймат модели, конструктив қисмлари, қайта таснифлаш.</p>
---

**Кириш.** “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида [1] инвестициявий муҳитни яхшилаш, ресурслардан самарали фойдаланиш, энергия тежамкорлигига эришиш каби муҳим вазифалар қўйилган. Бу ўз навбатида мулклар, жумладан инвестициявий кўчмас мулклар (ИКМ) ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқлаштиришни кўзда тутди. Амалиётдаги счётлар режасидан келиб чиқиб, ИКМлар тасарруф қилиш жараёнлар, жумладан сотилиши, тугатилиши ҳамда фойда ва зарарларни счётларда акс эттиришнинг услубий масалалари бўйича ишланмалар талаб этилади. Шу боис, ИКМларни тасарруф этилиши

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.